


sion salohiyatning mavjudligi imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.



1-rasm. 2023-yil yanvar-sentabr oylarida dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari dinamikasi.

Amalda faoliyat yuritayotgan klasterlarda tizimli muammolar ham mavjud bo'lib, respublikamiz hududlarida meva-sabza-

votchilik mahsulotlarini tayyorlash, qisqa muddatli saqlash, tashish va qayta ishlash borasidagi texnika, texnologiyalarni yetarli darajada emasligi; meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi fermer va dehqon xo'jaliklarida marketing xizmatlari yo'lga ko'yilmaganligi; meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi fermer va dehqon xo'jaliklarining mahsulot jozibadorligi va raqobatdoshligini oshirishga bo'sh mablag'larning yo'qligi; respublikaning geopolitik joylashuviga ko'ra to'g'ri-dan-to'g'ri dengizga chiquvchi transport karidoriga ega emasligi, bu esa eksport qilinayotgan mahsulotlarning tannarxi va sifatida aks etib, ularning rentabelligi pasayishiga olib kelishi; respublikamizning ko'plab xududlarida mavjud muhandislik-kommunikatsiya va yo'l infratuzilmalari zamonaviy talablarga, iqtisodiyot korxonalari va aholi ehtiyojlariga javob bermasligi kabi muammolarni bartaraf etish lozim.

Sohaning rivojlanishini mustahkamlashga layoqatli hamda malakali mutaxassislarning bilim hamda malakalarini muntazam ravishda oshirib borish tizimini takomillashtirishga e'tibor qaratish kerak.

Meva-sabzavot mahsulotlarini etishtirish, saqlash, qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribalarining tahlillari ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning kooperatsiyasi va klasterlarini rivojlantirish qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Porter E. Maykl. Konkurensiya: per.s angl.– M.: ID «Vilyams», 2005. – 608 s.
2. Sh.S.Dexkanova. "Mamlakat iqtisodiyotiga agroklasterlarini joriy etishning xorijiy tajribalari" "Agroiqtisodiyot" jurnali. Toshkent, 2021. № 1/2021.–97-99 b.
3. Sh.S.Dexkanova. "Meva-sabzavotchilik klasterlarini innovatsion rivojlantirish yo'llari". "Agroiqtisodiyot" jurnalri. Toshkent, 2020. № 2/2020.– 106-107 b.
4. Stat.uz

UO'T: 632; 634

XANDON PISTANING O'ZBEKISTONDA MAVJUD XORIJIY NAVLARI VA ULARDA UCHRAYDIGAN KASALLIK TURLARI

Xudoynazarova Nargiza Xudoyarovna,
Nazarova Odina Jumadullayevna,
Eshankulov Bobomurod Inoyatovich,
O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti.

Annotatsiya. Mamlakatimizda uzoq yillar davomida xandon pistaning istiqbolli shakllarini tanlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu shakllar nav darajasiga yetkazilgan. Shuningdek, O'zbekistonda xandon pistaning chetdan keltirilgan bir necha navlari mavjud bo'lib, quyida ulardan barpo etilgan plantatsiyalar va ularning hozirgi holati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birgalikda, xandon pistaning hosiliga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi turli kasalliklar hamda ularning asosiy belgilari to'g'risidagi ma'lumotlar ham keltirilgan.

Аннотация. В нашей стране на протяжении многих лет велась научно-исследовательская работа по выделению перспективных форм фисташек, и сегодня эти формы признаны сортами. В Узбекистане также имеется несколько импортных сортов фисташек, информация о созданных на их основе плантациях и их современном состоянии приведена ниже. Наряду с этим также представлена информация о различных заболеваниях, негативно влияющих на урожай фисташек, и их основных симптомах.

Abstract. In our country, for many years, scientific and research work on the selection of promising forms of pistachios has been carried out, and today these forms are recognized as varieties. There are also several imported varieties of pistachios in Uzbekistan, information about the plantations established from them and their current status is given below. Along with this, information on various diseases that negatively affect the harvest of pistachios and their main symptoms is also provided.

Xandon pistaning yirik mevali xorijiy navlarini ko'paytirishga mahalliy aholi tomonidan yuqori qiziqish bildiriladi va bugungi kunda ko'plab pista bog'lari barpo etilgan. Xorijdan keltirilgan xandon pistaning nav urug'laridan barpo etilgan ushbu bog'larda turli shakllari yuzaga kelgan, ularning ko'pchiligi changchi daraxtlar bo'lsa, ayrimlari mayda mevali daraxtlardir. Bunda pistaning polimorfizm xususiyatini hisobga muhim hisoblanadi. Barcha xorijdan keltirilgan pista urug'laridan pistazorlar barpo qilishda quyidagi umumiy xatoliklar ko'zga tashlanadi:

- ekilgan yirik urug'dan albatta yirikmeva beruvchi pista daraxti bo'ladi deb ishonish;
- uni ko'chirib o'tkazishga urinish natijasida yosh pista daraxti yoki ko'chatining nobud bo'lishi;
- changchi va urug'chi daraxtni farqlay olmaslik;
- daraxtlar biologiyasini bilmaslik sababli changchi daraxtlarni kesib tashlash;
- payvand qilish muddatlari va usulini bilmaslik natijasida maydonda daraxtlar nisbatining noto'g'ri taqsimlanishi;
- urug'chi daraxtlar hosildorligi va sifati past bo'lishini bartaraf etish usullarini bilmaslik.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida bir necha viloyatlarda xorijiy pista navlari urug' avlodining pistazorlardagi umumiy holati, vegetatsiyasi o'rganib chiqildi, taksatsion baholandi. Buning uchun Farg'ona viloyati Marg'ilon tumani, Toshkent viloyati Toshkent va Qibray tumanlari, Buxoro viloyati G'ijduvon tumani, Qashqadaryo viloyati Kaspi tumani, Surxondaryo viloyati Denov va Boysun tumanlaridagi xorijiy pista navlarining urug' avlodidan barpo etilgan pistazorlar va daraxtlar o'rganildi.

O'zbekistonning turli geografik iqlim-tuproq sharoitlarida xorijiy pista urug'laridan plantatsiya barpo qilishga harakat qilingan. Farg'ona viloyati Oltiariq tumani bo'yicha o'stirilgan pista plantatsiyasi holatini tahlil qilsak: Erondan keltirilgan Axmadi (1-rasm) va fandugi (2-rasm) urug'leri ekilgan, daraxtlar hosil berishga kirishni endi boshlagan. Umuman olganda hozircha urug'chi daraxtlar-60%, changchi daraxtlar - 40%ni tashkil qiladi. Urug'chi daraxtlarning yong'oqmevasi hajmi bo'yicha ham yirik, o'rtacha va kichik ekanligi kuzatildi. Maydondagi 90% daraxtlar tanasiga ishlov berish natijasida ko'p tanali holda o'sgan. Buning natijasida changchi daraxtlar sonini kamaytirish va yong'oqmevasi mayda bo'lgan daraxtlarni yirik mevali daraxtlarga aylantirish ishlarida ma'lum qiyinchiliklar tug'iladi.



1-rasm. Xandon pistaning Axmadi navi yong'oqmevasi



2-rasm. Xandon pistaning Fandugi navi yong'oqmevasi

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida Erondan keltirilgan xandon pistaning Akbari (3-rasm) navi urug' avlodi daraxtlarining taksatsion ko'rsatkichlari aniqlandi. U yerda 3 ta yirik daraxt bo'lib, bunda ikkita changchi va bitta urug'chi daraxt mavjud. E'tiborli tomoni shundaki, 2021 yilda ushbu urug'chi daraxt 30 kg pista (tozalangan, quritilgan) hosilini bergan. Bu daraxtlar sug'oriladigan maydonda o'sadi. Payvandlanmagan.



3-rasm. Xandon pistaning Akbari navi yong'oqmevasi

Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida Erondan keltirilgan xandon pistaning Axmadi navi urug' avlodi yosh daraxtlarining maksimal bo'yi 3 m (2 yillik) dan oshgan. Pista o'sib turgan maydon doimiy sug'orish tizimiga ega, tuprog'i o'rtacha sho'rlangan. Iyun oyida ba'zi daraxtlarda payvand qilingan novdalarida qurish kuzatildi. Shunday bo'lsada daraxtlarning umumiy holati yaxshi bo'lib bunday tuproqli sharoitlarda pistalarning o'sishi ijobiy holat hisoblanadi va pistachilikda yangi imkoniyatlarni ochishga sabab bo'lishi mumkin.

Toshkent viloyati Qibray tumanida Erondan keltirilgan xandon pistaning Axmadi navi urug' avlodi yirik daraxtlar bo'lsada zich ekilishi hisobiga shox-shabbasi qator oralari tomonga qarab o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Daraxtlar ancha yirik bo'lsada, hosildorlik darajasining pastligi aniqlandi. Yirik mevali daraxtlar mavjud.

Qashqadaryo viloyati Yanginishon shaharchasida Erondan keltirilgan xandon pistaning Axmadi navi urug' avlodi daraxtlari holati yaxshi, kasallik va zararkunandalar bilan zararlanish holati qayd etilmadi. Daraxtlar hosilga kirish arafasida. Hozircha bitta daraxtda yirik meva berishi kuzatildi.


Horijiy pista navlarida uchraydigan kasalliklar.

Kuyish kasalligi. Bu kasallik yashil novdalarning kuyishi bilan izohlanadi. Bahor mavsumining o'rtalarida oldingi vegetatsiya davrida infeksiyalangan novdalardan unib chiqqan novdalar chirishni boshlaydi. Shuningdek, rak kasalligining ham rivojlanishi kuzatiladi [3]. Uning qo'zg'atuvchisi *Botryosphaeria dothidea* zamburug'i ekanligi tadqiqotlarda aniqlangan (4-rasm).



4-rasm. *Botryosphaeria dothidea* zamburug'i ta'sirida nobud bo'lgan pistaning yosh novdasi

Septorioz. Ushbu kasallik Eronda birinchi marta 2008 yilda aniqlangan. U pista barglarining jiddiy shikastlanishiga olib kelgan. Septoriozning asosiy belgilari sifatida barg ustida jigarrang dog'lar va juda ko'p miqdorda pikpidiyalarning paydo bo'lishi keltirilgan [4]. Barg yuzasidagi belgilar va zamburug'ning morfologik xususiyatlariga ko'ra uning qo'zg'atuvchisi *Septoria pistacina* ekanligi aniqlangan (5-rasm).



5-rasm. Septorioz kasalligi

a) kasallikning bargdagi dastlabki belgilari;
b) mavsum so'ngida kasallikning og'ir belgilari.

Alternarioz-fitoftoroz. Bunda barglarda uncha katta bo'lmagan zararlanish hosil bo'ladi. Hali yetilmagan, yashil bo'lib turgan pista mevasida 1 mm gacha bo'lgan dog'lar paydo bo'ladi [1; 2]. Yetilgan mevalarda bu dog'lar turli hajmda, cheqasi qizg'ish, o'rtasi qora rangda bo'ladi. Bu kasallikning qo'zg'atuvchisi *Alternaria alternata* zamburug'i hisoblanadi. Alternarioz odatda tabiatda uchraydi, o'simlik qoldiqlarida, begona o'tlar va qurigan o'tlarda osongina rivojlana oladi. Sporolari havo oqimi va suv tomchilari orqali tarqaladi.

Xulosa. Xandon pista plantatsiyalarini barpo etishda turli sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan shakllardan foydalanish kerak. Chunki har bir shaklning morfologik belgilari kabi bioekologik xususiyatlari ham turlicha bo'ladi. Bir xususiyati yuqori bo'lgan nav va shakllarning boshqa xususiyatlari pastroq bo'lishi mumkin. Shu boisdan ham mevasining sifat ko'rsatkichlari yoki hosildorligi yuqori bo'lgan nav va shakllarni aralash holda joylashtirish tavsiya etiladi. Xandon pista kasalliklariga qarshi kurashishda agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida olib borish, yerni chuqur xaydash, o'simlik qoldiqlarini daladan olib chiqib tashlash tavsiya qilinadi. Kasallikning ommaviy tarqalishi kuzatilganda, kimyoviy va biologik kurash choralaridan foydalanish lozim.

ADABIYOTLAR:

1. O.Nazarova, O.Xujayev. Xandon pistada Alternarioz kasalligi, uning zarari va ayrim biologik xususiyatlari: tadqiqot natijalari. Agro Ilm, maxsus son – 2[86], 2022.
2. Gavin James Ash, V. M. Lanoiselet. First report of *Alternaria alternata* causing late blight of pistachio (*Pistacia vera*) in Australia. December 2001, Plant Pathology 50(6):803 – 803 DOI: 10.1046/j.1365-3059.2001.00626.x.
3. Nicola Wunderlich, Severino Sousa Costa, Roni Pati Tpoi, Gavin James Ash. First report of *Botryosphaeria dothidea* causing shoot blight and cankers of pistachio in Australia. Australasian Plant Dis. Notes (2012) 7:47–49 DOI 10.1007/s13314-012-0045-y.
4. O.Nazarova, O.Khujaev, G.Jumanazarov. Septoria (*Septoria pistaciae* Desm.) pathogen infecting pistachio nuts in Uzbekistan and its biological characteristics. IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1142 (2023) 012051.

UO'T: 631.4:551.3

TOG' YONBAG'RI TUPROQLARINING UNUMDORLIGINI SAQLASH VA TIKLASH MUAMMOLARI

Mirxaydarova Gulmira Sultonovna, b.f.n., dotsent,
Suvanqulova Saida Shamsiddin qizi, talaba,
Xushatova Shahlo Farhod qizi, talaba,
Bo'riyeva Dilbar Xidir qizi, talaba,
Toshkent davlat agrar universiteti.

Annotatsiya. Maqolada tog' yonbag'ri lalmi bo'z tuproqlarning eroziya jarayonida kimyoviy va agrokimyoviy holatini, hamda tuproqning biologik faolligini o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Lalmi bo'z tuproqlarda gumusning tuproq unumdorligidagi ahamiyati, shuningdek, gumus miqdorini eroziya jarayonida kamayishi va eroziyaga qarshi tadbirlarning o'tkazilishida tiklanishi kabi ma'lumotlar yoritilgan. Lalmi bo'z tuproqlari profili bo'ylab gumusni bir tekis taqsimlanmagani, va gumus miqdori qiyaliklarning ekspozitsiyasiga xam bog'liqligi jadvalda keltirilgan. Shuningdek, gumus miqdoriga bog'liq xolda tuproqning fizik xossalarini o'zgarishi kabi ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: lalmi tuproqlar, tuproq unumdorligi, kimyoviy va agrokimyoviy xossalari, gumus, eroziya jarayoni, qiyalik ekspozitsiyasi.

Аннотация. В статье представлены сведения об изменении химического и агрохимического состояния богарных сероземов горных склонов, а также биологической активности почвы. Освещены сведения о значении гумуса в плодородии почв в богарных сероземах, а также о снижении содержания гумуса при эрозии и его восстановлении при противоэрозионных мероприятиях. В таблицах показано, что гумус распределен по профилю богарных сероземов неравномерно, а количество гумуса зависит также от экспозиции склонов. Также приведены сведения об изменении физических свойств почвы в зависимости от количества гумуса.